Reflective Technologies of Development of Sanogen Thinking in Students.....	1010
<i>Ismailov Murodulla Kahramonovich</i>	
Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	1014
<i>Avazova Farangiz Ixtiyor qizi</i>	

Surxon adabiy maktabi: Usmon Azim va Shafolat Rahmatulla Termiziy ijodi.....	1022
<i>Xolboyeva Dilafruz Xayrulla qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish	1026
<i>Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalariga doir ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida ixtiyoriy diqqatini shakllantirish.....	1030
<i>Quysinova Shahlo Nasim qizi</i>	
Alaliyali bolalar bilan logopedik ishning tizimli yondashuvi	1035
<i>Irkinova Irodaxon Temirovna</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv	1040
<i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>	
Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari	1043
<i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>	
Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish	1047
<i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli.....	1051
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuhomadovna</i>	
Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari.....	1055
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>	
Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati	1060
<i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi	1064
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
O'tkir Hoshimovning realistik xarakter yaratish mahorati.....	1070
<i>Nortoijiyev Muxammad</i>	
Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari.....	1073
<i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>	
O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati	1078
<i>Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi.....	1083
<i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>	
Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1087
<i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>	
"Taskari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi	1093
<i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>	
Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration.....	1096
<i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni	1101
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida	1105
<i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	1110
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish	1114
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish	1118
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi.....	1123
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>	



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	1130
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi	1135
Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari	1139
Yunusova Feruza Maxamadolim qizi	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiev Sitora Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bekmurodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
Tarbiya darslarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuriddinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abduvahabovna, Bo'riboyeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinova	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY G'URUR HISSINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna

TerDPI Maktabgacha ta'limda tarbiyani tashkil etish
kafedrası o'qituvchisi PhD, dotsent

Annotatsiya: Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur hissini shakllantirish maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda tarbiyachi-pedagoglarning pedagogik madaniyatga ega bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolada yosh avlodni tarbiyalashda yuqori malakali va zarur bilimlarni egallagan tarbiyachilarning pedagogik madaniyati, shuningdek, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, milliy g'urur, maktabgacha katta yosh, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ertak, xalq pedagogikasi, tarbiyachining pedagogik madaniyati.

Abstract: One of the main tasks of pedagogues in preschool educational organizations is to form a sense of national pride in older preschool children through folklore. In this process, the acquisition of pedagogical culture by educators plays a crucial role. The article scientifically discusses the pedagogical culture of highly qualified teachers possessing the necessary knowledge for educating the younger generation, as well as their role in fostering a sense of national pride in preschool-age children.

Key words: preschool education, national pride, preschool age, spiritual and moral education, fairy tale, folk pedagogy, pedagogical culture of the educator.

Аннотация: Одной из основных задач педагогов дошкольных образовательных организаций является формирование чувства национальной гордости у детей старшего дошкольного возраста посредством фольклора. В данном процессе важное значение приобретает педагогическая культура воспитателя. В статье с научной точки зрения раскрывается педагогическая культура высококвалифицированных педагогов, обладающих необходимыми знаниями для воспитания подрастающего поколения, а также их роль в формировании чувства национальной гордости у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: дошкольное образование, национальная гордость, дошкольный возраст, духовно-нравственное воспитание, сказка, народная педагогика, педагогическая культура воспитателя.

KIRISH

Ma'lumki, tarbiyachilar bolalarga insonni o'rab olgan olamning murakkabligi, ajoyibotlari va sirli jihatlarini anglashlariga, tabiat inson turmush tarzi qulayliklarining garovi ekanligini tushunib yetishlariga, shu sababdan tabiatni muhofaza qilish zarurligini idrok etishlariga yordam beradilar. Shuni unutmaslik lozimki, tabiatdagi barcha narsa va voqea-hodisalar bolalar uchun qiziqarli hamda sirli topishmoqdek tuyuladi. Ular bu jumboqlar sirini bilishga, sabablarini anglashga harakat qiladilar. Bola dastlabki tizimli ta'limni maktabgacha ta'lim tashkilotida oladi. Binobarin, uning sog'lom, har tomonlama barkamol bo'lib shakllanishi bevosita pedagog-tarbiyachi faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ulari ularning ayrim harakatlari aks etib turadi. Biroq ularda Vatan va milliy g'urur haqidagi tasavvurlar cheklangan bo'ladi. Ular Vatan hamda Vatanni ulug'lovchi she'r, hikoya va ertaklarni biladilar, ammo milliylikning mohiyatini yetarlicha anglay olmaydilar.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi bilan bir qatorda quyidagi shartlarga amal qilishi zarur:

- yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori malakali, zarur bilimlarga ega bo'lishi, mos adabiyotlarni tanlay olishi, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay olishi, ilg'or tajribali pedagoglar tajribasini o'rganib, uni o'z faoliyatiga tatbiq eta olishi;
- bolalarni kuzata olishi, ularning xulqi va xatti-harakatlari sabablarini to'g'ri tahlil qilishi hamda ularga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi vositalarni tanlab, qo'llay olishi;
- bolalarga zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni singdirishda pedagog nutqining ravon, aniq, mantiqiy va ixcham bo'lishi, ta'lim jarayonida texnik vositalardan samarali foydalana olishi, bolalarni faollashtiruvchi savollardan o'rinni foydalanishi;
- bolalarning xulqi va xatti-harakatlarini haqqoniy baholay olishi va yo'naltirishi, kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila olishi;
- tarbiyalanuvchilarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay olishi hamda bu holatlarni amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarda hisobga olishi;
- ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar o'tkazishi, axborot almashuvini yo'lga qo'yishi va samarali hamkorlikni ta'minlay olishi;
- bolalarga nisbatan mehribon va xayrixoh bo'lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, zarur hollarda ularni ovuta olishi, pedagogik jarayonlarni tahlil qila bilishi va ularni takomillashtirish yo'llarini topa olishi.

Eng muhimi, tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi va tashabbuskorligini to'g'ri baholashi hamda mustaqil faoliyatlari uchun imkoniyat yaratib berishi lozim. Buni bolalar yuqori baholaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolaga nisbatan qo'llaniladigan "milliy g'urur" tushunchasi mazmunan umumiy obyektiv va subyektiv dialektik yaxlitlikni mujassamlashtiradi hamda bu ma'naviy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Eng muhimi, mazkur hodisa milliy g'ururning haqiqiy, amaldagi holatini ifodalaydi. Shaxsning ijtimoiy rivojlanishi va ma'naviy ong mexanizmlarining obyektiv talablari hamda qonuniyatlariga tayanish, bir tomondan, maktabgacha yoshdagi bolaning real ma'naviy imkoniyatlarini hisobga olishga, ikkinchi tomondan esa uning ma'naviy madaniyat darajasi ko'rsatkichlarini aniqlashga imkon beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy ruhda tarbiyalash masalasi xalq og'zaki ijodi bilan chambarchas bog'liq holda bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, J.X. Abdullayev tomonidan o'rganilgan o'zbek xalq topishmoqlari bolalar tafakkuri, nutqi va milliy dunyoqarashini shakllantirishda muhim vosita ekanini ko'rsatadi. Muallif xalq og'zaki ijodi namunalarning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilgan holda, ularning tarbiyaviy imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu yondashuv maktabgacha yosh davrida milliy g'urur hissining dastlabki poydevorini shakllantirish mumkinligini asoslaydi.

Xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati masalasi D.A. Abdurahimova tadqiqotlarida chuqur yoritilgan. Olimaning fikricha, xalq ertaklari orqali bolalarda axloqiy fazilatlar bilan bir qatorda milliy ong va milliy g'urur hissini izchil shakllantirish mumkin. Muallif maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xalq ertaklaridan foydalalanish tarbiyachining pedagogik mahoratiga bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi. Shuningdek, N. Safarova tomonidan o'rganilgan o'zbek bolalar o'yin folklori bolalarning ijtimoiylashuvi, jamoaviylik, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida shakllanishida muhim omil sifatida talqin qilinadi.

Pedagogik madaniyat va tarbiyachi shaxsining kasbiy fazilatlarini masalasi rus pedagogik maktabi vakillari tomonidan ham keng o'rganilgan. Jumladan, N.A. Moreva pedagogik mahoratni tarbiyachining kasbiy madaniyatining asosiy tarkibiy qismi sifatida yoritadi. O.L. Zvereva va hammualliflar esa oilaviy tarbiya va maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligi zarurligini asoslab, bolalarda ma'naviy-axloqiy va milliy fazilatlarini shakllantirishda tarbiyachi va ota-onalarning pedagogik madaniyati muhim ekanini ta'kidlaydilar. Ushbu nazariy qarashlar maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik ahamiyatini ilmiy asoslash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiya-chining pedagogik ahamiyatini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Ma'lumotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bevosita kuzatish, tarbiyachilar va ota-onalar bilan suhbat hamda anketa so'rovlari orqali yig'ildi. Shuningdek, bolalar ishtirokidagi mashg'ulotlar, xalq og'zaki ijodi namunalari-dan foydalanilgan tarbiyaviy jarayonlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida pedagogik hujjatlar, tarbiyaviy reja va metodik materiallar kontent tahlili asosida o'rganildi. Olingan empirik ma'lumotlar taqqoslovchi va xulosaviy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, tarbiyachining pedagogik madaniyati bilan bolalarda milliy g'urur hissining shakllanish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlashtirildi. Natijalarning ishonchliligini ta'minlash uchun umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot ishlari maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda bolalarni o'zbek xalqining milliy an'analari bilan izchil tanishtirib borish zarurligini ko'rsatdi.

Biz bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishni ularni o'zbek xalqining hayoti, madaniyati va san'ati bilan tanishtirishdan boshlash maqsadga muvofiq ekanligiga amin bo'ldik, chunki mazkur yosh davrida tarbiyaviy masalalarni aniq va tushunarli shaklda o'zlashtirishga erishish mumkin.

Shu sababli maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ma'naviy madaniyatini kengaytirish xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni inobatga olib hamda ushbu yosh davrida milliy g'ururni tarbiyalashning nazariy va metodologik holatlariga asoslanib, quyidagi tanlov tamoyillari belgilandi.

- I. Agar vazifalar pedagogik vazifalar singari aniq belgilangan bo'lsa, haqiqiy ma'naviy imkoniyatlar, xalqning bevosita hayot faoliyatiga yaqin bo'lgan an'analari hamda tarbiyalanuvchi jalb etilgan ijtimoiy-insonparvarlik munosabatlari tizimi inobatga olinadigan bo'lsagina, maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiy ma'naviy sifatlari va xususiyatlarini to'laqonli tarbiyalash mumkin.
- II. Shaxsga yaxlit yondashuv tamoyili. Alohida, cheklangan sifatlar tarbiyaning bevosita maqsadi bo'la olmaydi, chunki sifatlarning o'zi – maqsad, vazifa, mazmun, obyektini o'rganish va unga ta'sir ko'rsatish metodlari tizimi, ularni to'g'rilash hamda natijalarni hisobga olish kabi jihatlarni qamrab oluvchi tarbiyaviy jarayon markazida faqat yaxlit shaxs mazmunida namoyon bo'lishi mumkin.

Tarbiyaviy faoliyat tizimining optimal qurilishi sharoitida maktabgacha katta yoshdagi bolaning xulqi alohida, cheklangan maqsadlar bilan emas, balki aniq sharoitlarda ularga erishish orqali shakllanadi. Shu sababli shaxsning u yoki bu jihati alohida kengaytirilmay, balki shaxsga xos barcha sifat va xususiyatlar to'liq qamrab olingan holda dastur samaradorligi yuqori bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy ahamiyatli motivlar asosida shakllangan yaxlit shaxs sifatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- maktabgacha ta'lim tashkilotiga, uning hayot faoliyati tarziga, tarbiyachiga, tengdoshlar guruhiga, oilasiga va o'z-o'ziga nisbatan ma'naviy-insonparvarlik xarakteridagi munosabatlar bilan;
- ijodiy ehtiyoj va qobiliyatlarning to'laqonli rivojlanishi, faoliyatni bajarish usullarini egallash jarayonida yaratuvchanlik, bolalar faoliyati turlaridagi rang-barang qiziqishlar asosida shakllanuvchi ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar uyg'unligi bilan ifodalangan faoliyat madaniyati orqali;
- kattalarga hurmat, tengdoshlarni tan olishga asoslangan ijobiy o'zaro munosabatlarni ta'minlovchi guruhli o'zaro ta'sir muhitida muhim ijtimoiy funktsiya sifatida namoyon bo'ladigan muloqot madaniyati orqali. Bu jarayonda shaxsiy-subyektiv munosabatlar insonparvarlik va hamkorlik asosida shakllanadi;
- insonparvarlik munosabatlari tizimida namoyon bo'ladigan shaxsning ma'naviy-irodaviy va ijobiy hissiy sifatlari hamda xususiyatlari orqali. Ushbu sifatlar hayotdan mamnunlik, qadr-qimmat, pedagogga, boshqa kattalarga va tengdoshlariga nisbatan ishonchli munosabat, kamtarlik, haqiqatgo'ylik, adolatlilik, ozodalilik, do'stonalik va mustaqillik kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

Sanab o'tilgan tarkibiy unsurlar maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur hissini tarbiyalash mazmunini belgilab beradi. Ular ma'naviy tarbiya jarayonining asosiy tarkibiy qismlari hisoblanib, maktabgacha yosh davrida ma'naviy barkamol shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Milliy g'urur to'g'risidagi tushunchalarning funksiyalari tarbiya tizimida pedagogik jarayonning "teskari aloqa" xususiyatini va natijalarini ochib berish, yosh guruhlari o'rtasidagi, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti va boshlang'ich maktab o'rtasidagi ichki jarayonlarning uzluksizligini ta'minlashda kompleks yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.



Bunday yondashuv muhim ahamiyatga ega bo'lib, u tarbiyalanuvchilarning ma'naviy qobiliyatlari rivojlantirishini hamda tarbiyaviy jarayonning barcha bosqichlarida pedagogik o'zaro ta'sir va hamkorlikni dolzarb etadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur hissini shakllantirishning tanlov tamoyillari ma'naviy-axloqiy madaniyat va qalb kuchini rivojlantirish uchun ikki asosiy jihat zarurligi bilan belgilanadi:

- birinchisi – xalqning ruhiy-psixologik uslubini shakllantiruvchi milliy ong;
- ikkinchisi – madaniyatning umuminsoniy elementlari va umuminsoniy qadriyatlarga daxldorlik hissi.

Ma'lumki, milliy o'z-o'zini anglash milliy cheklanishdan xoli bo'lgan xalqlardagina chuqur va moslashuvchan xarakter kasb etadi. Shu sababli tarbiyaviy dasturning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy an'analar bilan integratsiyasi milliy ong hamda umuminsoniy madaniyatga ega millatning ruhiy madaniyatini shakllantirishning asosiy sharti deb hisoblanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur hissini shakllantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining asosiy vazifalaridan biri pedagogik madaniyatni egallash hisoblanadi. Umumiy ma'noda madaniyat tushunchasi ma'naviy va moddiy boyliklarni jamlashni anglatadi, kattalar esa ularni tarixdan hozirgi davrga va kelajak avlodlarga yetkazuvchi vosita hisoblanadi.

Bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari hamda tarbiyalanuvchilar ota-onalarida yuzaga keladigan umumiy muammolarni ajratib ko'rsatish zarur. Birinchidan, pedagogik madaniyatning mazmuni va uni namoyon etish usullari to'g'risida aniq tushunchaning yetishmasligi. Ikkinchidan, ota-onalarning o'z mehnat faoliyati, tarbiyachilarning esa pedagogik jarayonni amalga oshirishdagi bandligi sababli teatrlar, muzeylar va ko'rgazmalarga tashrif buyurish imkoniyatlarining cheklanganligi. Uchinchidan, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi barcha pedagoglarning ota-onalarda pedagogik madaniyatni shakllantirish metodikasiga yetarli darajada ega emasligi.

Milliy g'urur inson faoliyatining boshqa sohalariga nisbatan madaniyat bilan yanada uzviy bog'liq hisoblanadi. U jamiyatning alohida sohasi sifatida ijtimoiy-madaniy yo'nalishga ega insonni shakllantirishni amalga oshiradi, madaniy merosni asrash, shaxsni ijtimoiylashtirish hamda uning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini boshqarish vazifalarini bajaradi.

Shu bois mutaxassis madaniyati uning kasbiy faoliyatida alohida o'rin tutadi. U shaxsga kompleks ta'sir ko'rsatadi, kasbiy-shaxsiy munosabatlar tizimida mustahkam mavqe egallashga, o'zini va faoliyatdagi rolini anglashga ko'maklashadi hamda tanlangan kasb doirasida ijodiy faoliyatning integral ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi. Mutaxassis madaniyatining umumiy ko'rsatkichlari sifatida esa shaxs dunyoqarashining kengligi va yo'nalganligini, ijtimoiy faollik darajasini hamda hissiy ta'sirchanlik xususiyatlarini qayd etish mumkin.

Xalq tushunchasi darajasida pedagogik madaniyat mutaxassislar pedagogik muloqot vaziyatida xalqni tashkil etishga amal qiladigan talab, me'yor va namuna sifatida tushuniladi. Ba'zan pedagogik madaniyatni kasbiy savodxonlik, bilimdonlik, pedagogik texnika yoki taktika bilan tenglashtirish holatlari ham uchraydi.

Nazariy jihatdan pedagogik madaniyat umumiy madaniyatning bir qismi sifatida qaraladi, chunki u:

- insoniyatning tarixiy-madaniy tajribasini birlashtiradi, alohida pedagog esa mazkur tajribani tarbiyalanuvchilarda belgilangan qadriyatlar va munosabatlar hajmi orqali aks ettiradi;
- o'qituvchi ijtimoiy amaliyotining bir qismi hisoblanadi va uning talablar hamda an'analar, o'zaro munosabatlar me'yorlari orqali shakllangan ta'sir doirasida namoyon bo'ladi;
- inson bilimlari sohasini ifodalaydi hamda o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan, mohir pedagog faoliyatining muhim komponenti sanaladigan pedagogik konsepsiyalar, tizimlar va texnologiyalarda o'z aksini topadi;
- pedagog tomonidan jamiyatning obyektiv ehtiyojlarini aks ettirish usuli hisoblanadi.

Pedagogik madaniyat murakkab tuzilgan tizim bo'lib, pedagogik ta'sir etish subyekting ko'p darajali tarkibiga egadir. Shu sababli pedagogik madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi haqidagi fikrni nafaqat mohir pedagoglarga, balki butun jamiyat miqyosida ham qo'llash lozim.

Madaniyat insonning ixtiyoriy faoliyat turlariga qo'yiladigan me'yoriy talablarni aks ettiradi. Shu bois inson faoliyati turlari qancha bo'lsa, madaniyat turlari ham shuncha bo'ladi. Madaniyat – insonning hayot faoliyati jarayonida o'zlashtirgan tajribasidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, pedagogik madaniyat pedagogik jarayonning integrativ tavsifini ifodalaydi. U insonlar tomonidan orttirilgan ijtimoiy tajribalarni, shuningdek, bir avloddan ikkinchi avlodga yetkazish bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, kompetensiyalar hamda maxsus institutlar shaklida mustahkamlangan pedagogik faoliyat natijalarini uzluksiz yetkazib berishga qaratilgan yaxlit faoliyat majmuasidan tarkib topadi.



Agar madaniyat muayyan faoliyat turiga qo'yiladigan me'yoriy talablarni ifodalasa, pedagogik madaniyat yosh avlodni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish jarayoniga qo'yiladigan talablarni o'zida mujassamlashtiradi.

Pedagogik madaniyat butun jamiyat hamda har bir alohida shaxsning umumiy madaniyatini aks ettiradi. Shu sababli jamiyatning pedagogik madaniyati keng jamoatchilikning pedagogik madaniyat darajasi bilan belgilanadi va umumiy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi.

Pedagogik madaniyat umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida jahon pedagogik tajribasi asosida shakllanadi, madaniy davrlarning almashinuvi natijasida pedagogik sivilizatsiyaning rivojlanishiga olib keladi va ta'lim paradigmalari o'zgarishini ta'minlaydi.

Har bir tarixiy davr o'ziga xos pedagogik madaniyatni shakllantiradi. Uning turli ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish uchun asos bo'lib ma'naviy yangilanish jarayoni xizmat qiladi. Bu jarayon ostida umumiy mazmundagi ma'naviy qadriyatlardan foydalanish va ularni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ijtimoiy munosabatlar tizimi tushuniladi. Madaniyatning turli shakllari ta'lim va tarbiya jarayonida ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishning xilma-xil modellari yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Pedagogikaning toifasi sifatida pedagogik madaniyat ijtimoiy-pedagogik, ilmiy-pedagogik, kasbiy-pedagogik va shaxsiy darajalarda o'rganilishi mumkin.

Ijtimoiy-pedagogik soha quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

- otalar va bolalar, kattalar va kichiklar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi an'analar, marosimlar va qoidalarining saqlanishi;
- umuminsoniy va milliy ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy-pedagogik tajribani uzatish hamda shaxslararo, insoniy munosabatlarning shakllanishi;
- umuminsoniy va pedagogik qadriyatlarni shakllantirish;
- jamiyatning pedagogik tafakkuri va pedagogik ongida, amaliy bilimlar tizimida namoyon bo'luvchi pedagogik nazariya hamda madaniy namunalarni boyitish.

Pedagogik madaniyatning shaxsiy yo'nalishlari ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- pedagogning bolalarga nisbatan insonparvarlik munosabati va tarbiyachi sifatida faoliyat yurita olish qobiliyati;
- tarbiyalanuvchi nuqtayi nazaridan yuzaga keladigan muammolarni hal etishga imkon beruvchi psixologik-pedagogik kompetentlik hamda rivojlangan pedagogik tafakkur;
- o'qitiladigan fan sohasi bo'yicha yetarli bilimga egalik, ta'lim mazmuni va texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmasining shakllanganligi;
- o'qituvchining o'z pedagogik texnologiyasini ishlab chiqish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda mualliflik yondashuvini asoslash imkonini beruvchi ijodiy faoliyat tajribasi;
- kasbiy xulq madaniyati va o'z-o'zini rivojlantira olish qobiliyati;
- maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalash va uni to'laqonli rivojlantirishda ota-onalarning qadriyatli-maqсадga yo'naltirilgan munosabatlari.

Pedagogik madaniyatning shartli ravishda uchta darajasi farqlanadi.

Pedagoglarda ham, ota-onalarda ham pedagogik madaniyat asoslarini shakllantirish uchun quyidagi metodlar guruhidan foydalanish mumkin: kattalarning rag'batlantiruvchi refleksiv ko'nikmalarini rivojlantiruvchi metodlar (keys metodi, o'yinli modellashtirish metodlari, shaxsiy tarbiyaviy faoliyatni tahlil qilish). Mazkur metodlardan yakka holda foydalanish kattalarning bolaga nisbatan munosabatini shakllantiradi, egallangan bilim va kompetensiyalarni faollashtiradi; taqlidga asoslanmagan faol metodlar (munozaralar, bahslar, muhokamalar, treninglar, basket-metod va boshqalar). Sanab o'tilgan metodlar ichida kuzatish metodi alohida o'rin tutadi, uni pedagoglar va ota-onalarga kundalik yozuvlarni yuritish shaklida taklif etish mumkin.

"Pedagogik madaniyat" tushunchasining mazmun va mohiyatini o'rganish natijalariga asoslanib xulosa chiqarilganda, uni ma'naviy va moddiy qadriyatlar eng yuqori darajada mujassamlashtirgan umuminsoniy madaniyatning bir qismi sifatida, shuningdek, avlodlar almashinuvi va shaxs ijtimoiylashuvi (ulg'ayishi) tarixiy jarayoniga xizmat qiluvchi, insoniyat uchun zarur bo'lgan pedagogik faoliyatni amalga oshirish usullari majmui sifatida ta'riflash mumkin.

Shu tariqa, pedagogik madaniyat pedagogning pedagogik qadriyatlari, faoliyat usullari va kasbiy xulqi dinamik tizimini aks ettiradi. Jamiyat hayotini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish jarayonlari madaniyatning jamiyat hamda alohida shaxsning ma'naviy holatini belgilovchi asosiy ko'rsatkich sifatida qaralishiga sabab bo'ladi. Madaniyat orqali shaxsning jamiyat hayotidagi ishtiroki ta'minlanadi, atrof-olamni idrok etish



qobiliyati shakllanadi, o'zini yorqin individual sifatida namoyon etishning yangi metod va vositalarini izlash ehtiyoji rivojlanadi. Pedagogik madaniyat asosida shakllangan shaxs madaniyati jamiyat qadriyatlarini o'zlashtirish jarayoni, holati va natijalarining mahsuldor ko'rinishi hisoblanadi.

Pedagogik madaniyat rivojlanib boruvchi hodisa sifatida komponentlarning uyg'unligi va xilma-xilligini ifodalaydi. Ushbu komponentlar qatoriga pedagogik munosabatlar va shaxsiy sifatlar; kasbiy bilimlar va pedagogik tafakkur; kasbiy ko'nikmalar va faoliyatning ijodiy xususiyati; shaxsning o'z-o'zini tartibga solishi va kasbiy xulq madaniyati kiradi.

Pedagogik madaniyatni rivojlantirish shartlari pedagogning pedagogik yo'nalganligi, psixologik-pedagogik bilimdonligi va ma'lumotliligi, pedagogik mahorati va boshqa omillar bilan to'ldirilishi mumkin.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur hissini shakllantirishda pedagog-tarbiyachi ota-onalar bilan samarali o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ya olishi hamda ularni tarbiyaviy-talimiy va korreksion-rivojlantiruvchi jarayonga jalb eta olishi muhim hisoblanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur hissini shakllantirish uchun pedagoglar quyidagi sharoitlarni ta'minlashlari lozim:

- tarbiyalanuvchilarning ota-onalarida farzandlarining rivojlanish imkoniyatlarini tashxislash natijalari bilan tanishtirish orqali hamkorlik hissini shakllantirish;
- muammoli seminarlar jarayonida ota-onalar va pedagoglar bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda oilada bolalarni rivojlantirish, tarbiyalash va ta'lim berish vazifalari yuzasidan fikr almashish;
- tabaqalashtirilgan ota-onalar guruhlar bilan pedagogik hamkorlikning maxsus muammolarini aniqlash hamda individual va kichik guruhlar uchun konsultatsiyalar tashkil etish;
- an'anaviy va noan'anaviy muloqot usullaridan foydalanish orqali ota-onalar va tarbiyachilarga hamkorlik funksiyalarini o'rgatish;
- ijodiy loyihalar usuli asosida jamoaviy faoliyatni tashkil etish jarayonida bolalar va kattalarning intellektual hamda ijodiy tashabbuslarini rivojlantirish.

Yuqorida sanab o'tilgan sharoitlar ota-onalar bilan hamkorlik dasturini ishlab chiqish jarayonida amalga oshiriladi va unda quyidagi yo'nalishlar nazarda tutiladi:

1. O'zaro hamkorlikni modellashtirish.
2. Tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasida hamkorlikka yo'naltirilgan ijobiy shaxslararo munosabatlarni shakllantirish.
3. Ota-onalarda bolaning yanada to'liq obrazini yaratish hamda uni to'g'ri qabul qilishni shakllantirish.
4. Ota-onalarning pedagogik nuqtayi nazarlarini o'rganish va maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalash jarayonidagi oilaviy muammolar bilan tanishtirish.
5. Ota-onalarni qiziqishlariga ko'ra guruhlariga birlashtirish, oilaviy mehmonxona va oilaviy klublarni tashkil etish.

Ishning barcha bosqich va davrlarida ota-onalar bilan ishlashning turli usullari faol qo'llaniladi: bayon etilayotgan material yuzasidan savollar berish, bahsli vaziyatlarni muhokama qilish, muqobil takliflar bildirish, adabiyotlardan misollar keltirish hamda shaxsiy tajribadan foydalanish.

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, tarbiyachilarning pedagogik madaniyati va metodik kompetentligining yuqori darajasi maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalarining ham ushbu ko'rsatkichlari yuqori bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirish jarayoni pedagog-tarbiyachi faoliyati bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Ayniqsa, mazkur yosh davrida bolalarning hissiy-idrokiy qabul qilish darajasi yuqori bo'lishi milliy qadriyatlar, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi namunalarini samarali singdirish imkonini beradi. Shu bois tarbiyachining pedagogik madaniyati, kasbiy mahorati va milliy ruhdagi tarbiyaviy yondashuvi bolalarda milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat va g'urur tuyg'ularini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, xalq og'zaki ijodi vositalari – ertaklar, maqollar, topishmoqlar, o'yin folklori maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g'ururni shakllantirishning eng ta'sirchan va tabiiy pedagogik vositalaridan biridir. Ushbu vositalar nafaqat bolalarning nutqiy va estetik rivojiga, balki ularning ma'naviy-axloqiy



dunyoqarashining boyishiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagog va ota-onalar hamkorligining tizimli yo'lga qo'yilishi tarbiyaviy jarayon samaradorligini yanada oshirishi aniqlandi.

Tarbiyachilar faoliyatida pedagogik madaniyat darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, bolalarda milliy qadriyatlarni anglash, milliy g'urur hissining shakllanishi ham shunchalik barqaror va uzluksiz kechadi. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini milliy-ma'naviy yo'nalishda takomillashtirish muhim vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar faoliyatida milliy qadriyatlar va xalq og'zaki ijodidan foydalanishni tizimli va rejalashtirilgan tarzda tashkil etish tavsiya etiladi.
2. Tarbiyachilarning pedagogik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan seminar, trening va malaka oshirish dasturlariga milliy tarbiya masalalari bo'yicha maxsus modullarni kiritish lozim.
3. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirish jarayonida oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi pedagogik hamkorlikni kuchaytirish zarur.
4. Ta'lim-tarbiya jarayonida xalq og'zaki ijodi asosida ishlab chiqilgan interfaol usullar, o'yin texnologiyalari va ijodiy mashg'ulotlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.
5. Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy-ma'naviy tarbiyaga yo'naltirilgan metodik qo'llanmalar va didaktik materiallar bazasini boyitish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur takliflarni amaliyotga tatbiq etish maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissining barqaror shakllanishiga, kelajakda esa ma'naviy yetuk va vatanparvar shaxs tarbiyalanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev J.X. O'zbek xalq topishmoqlarining leksik-semantik xususiyatlari: filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 1994. – 116 b.
2. Abdurahimova D.A. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish: pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 1998.
3. Safarova N. O'zbek bolalar o'yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari: filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: O'zR FA A. Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti, 2005.
4. Moreva N.A. Osnovy pedagogicheskogo masterstva [Tekst]. – M.: Prosveshcheniye, 2006. – 320 s.
5. Zvereva O.L., Ganicheva A.N., Krotova T.V. Semeynaya pedagogika i domashneye vospitaniye detey rannego i doshkolnogo vozrasta [Tekst]. – M.: Sfera, 2009. – 256 s.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.